Mamlakatimizda MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni kundan-kun oshib bormoqda. Chunki moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXS ga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar, ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda tashqi siyosiy faoliyat, shu jumladan xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'nalishi jadal rivojlanib bormoqda va uni tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati ham rivojlanish yo'lidin bormoqda. Oxirgi yillarda barcha sohalarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tub islohotlar va bu borada erishilgan ulkan yutuqlar miqyosi jihatidan davlatimiz uchun misli ko'rilmagan hodisa bo'ldi va xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarda yangi davrni boshlab bermoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga eksport qilish, albatta, iqtisodiy rivojlanish uchun muhim yo'nalishdir. Bu jarayonni amalga oshirish uchun bir nechta muhim talablarni bajarishimiz kerak bo'ladi. Mahsulotlarni sertifikatlash va lisenziyalash, chet el bozorini o'rganish, logistika va transport faoliyatini yo'lga qo'yish, savdo va eksport agentliklari, shuningdek, xalqaro savdo bo'yicha tajribali konsultantlar orqali eksportni yanada osonlashtirish va samarali qilish mumkin.


Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek,



hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish" asosiy maqsad qilib olingani bejizga emas.

Bunday holda, notijorat tashkilot bir nechta sho"ba korxonalarining rahbariga aylanadi va mulkiy holati hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari konsolidasiyalangan moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak bo'lgan o'zaro bog'langan yuridik shaxslar guruhini ifodalaydi. Sho"ba korxonalar guruhiga nisbatan bosh tashkilot bo'lgan tashkilot konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning amaliy jihatlarini ko'rib chiqaylik. 1998-yil 14-oktyabrdagi 50-sonli "Sho"ba xo'jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish va konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlar" Moliya vazirligining buyrug'i bilan 8-sonli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti qabul qilinib kuchga kirishi bilan guruh kompaniyalari hisobotlarini tayyorlash jarayoni juda ko'p mehnat talab qiladi.

Bosh kompaniya konsolidasiyalangan moliyaviy hisobotda taqdim etilgan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari qoidalariga to'liq mos keladigan va guruhning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini o'zining tashkiliy-huquqiy qoidalariga muvofiq to'g'ri va to'liq ochib beradigan ma'lumotlar uchun qo'shimcha javobgarlikka ega bo'ladi. Bosh va sho"ba korxonalardan tashkil topgan kompaniyalar guruhlarida hisobot ma'lumotlarini birlashtirish jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin.



1- rasm. Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda moliyaviy axborotdan chiqarib tashlanadigan ma'lumotlar¹.

Mamlakatimizdakonsolidasiyalashningafzalligi—boshkompaniyo'ziningsho"bavaqaramkompaniyalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq ma'lumot to'plashi kerak. Har bir konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuzgan kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash guruh uchun ishlab chiqilgan yagona hisob siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu aktivlar, kapital va majburiyatlarni hisobga olish va baholash qoidalarini tartibga soladi. Agar alohida kompaniyaning hisob siyosati guruhning yagona hisob siyosati talablaridan farq qiladigan bo'lsa, u holda bu kompaniya o'zining hisobot ko'rsatkichlarini konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun yagona talablarga muvofiqlashtirishi kerak.

Amalda bu nomuvofiqliklar asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar hisobidagi farqlar, ularning eskirishlari, daromad va xarajatlar moddalari va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

«Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning barcha band va satrlarida ko'rsatilgan qiymatlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarga to'liq mos kelishi, hamda auditorlar tomonidan xalqaro audit standartlariga muvofiq tasdiqlanishi va ishonchli xulosaga ega bo'lishi asosiy ko'rsatkichlardan biridir»[2].

Buning sababi shundaki, guruhning har bir sho"ba va qaram korxonalari individual moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi va taqdim etishi kerak. Bu esa ko'p vaqt va mehnat talab qiladi.

Shunday qilib, konsolidasiya qilinayotgan kompaniyalar oldida qiyin vazifa turibdi: ular ikki turdagi hisobotlarni tuzadilar (bir hisobot milliy standartlar asosida, ikkinchisi MHXSga muvofiq) va moliyaviy hisobotning xalqaro hisobotlarini qayta ishlash uchun bosh tashkilotga taqdim etadilar;

¹ Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси



buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida individual moliyaviy hisobotlarni tuzadilar, so'ngra MHXS talablariga javob beradigan hisobot ko'rsatkichlarini olish uchun bir qator ishlab chiqilgan tuzatish tartib-qoidalarini qo'llaydilar.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tekshirish bosqichlari jiddiy noto'g'ri ma'lumotlar xavfini aniqlash va baholash, muhim audit proseduralari va yakuniy bosqichlarni qo'llash orqali auditorlar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan ishlar ketma-ketligini belgilaydi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan, mahalliy korxonalar amaliyotida parallel buxgalteriya hisobi va hisobot tizimlarining rivojlanishi ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini milliy va xalqaro nuqtai nazardan hisobot davrlari oxirida ham, hisobot davrida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Yagona korporativ hisoblar rejasi guruhdagi har bir kompaniya bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, shuningdek, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Agar Amerika buxgalteriya hisobi va hisobot tizimida aktivlar, majburiyatlar, o'z mablag'lari, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish bo'limlarini o'z ichiga olgan hisoblar rejasini tuzish uchun faqat umumiy tuzilma mavjud bo'lsa va ma'lum bir raqamlangan hisobvaraqlarning majburiy ro'yxati mavjud bo'lmasa, u holda, masalan, Fransiyada hukumat yagona reja hisoblarini tartibga soladi.

Har bir guruh kompaniyasining shaxsiy hisobotlari bilan bog'liq yozuvlarni sozlashning mumkin bo'lgan variantlarini ko'rib chiqaylik. Bunday holda, tuzatish kiritilishi mumkin bo'lgan hisobotning asosiy moddalaridan biri – asosiy vositalarni baholashdir.

Xulosa qilib aytganda, guruh kompaniyalari ishlab chiqarishning turli sohalarida, xizmatlar ko'rsatish sohalarida, turli hajmdagi operatsiyalarni amalga oshirishda va o'z faoliyatini nafaqat mamlakatimizda, balki chet elda ham amalga oshirishda taqdim etilgan muammoni hal qilishning murakkabligi yanada oshadi. Bu omillar guruhning barcha kompaniyalari guruhning yagona hisob siyosatida bosh kompaniya tomonidan tasdiqlangan qoidalariga rioya qila olmasligini tushuntiradi.

Faydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2020-йил 24-февралдаги ПҚ-4611-сонли қарори.
2. Авазов И. Консолидацияланган молиявий ҳисоботларнинг аудити натижаларини умумлаштириш. International Journal of Management, IT & Engineering. Апрель, 2020-йил.
3. Авазов И. “Консолидацияланган молиявий ҳисоботларни тайёрлаш ва аудит қилишни такомиллаштириш”. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент: “ECONOMY-FINANCE” нашриёти, 2020-йил. <http://library.ziyouet.uz/uzc/book/113011>, 58 бет.



MOLIYAVIY HISOBOTNING BARQARORLIK STANDARTLARI

Kurbanov Ziyat Niyazovich

iqtisod fanlari doktori, professor.TDIU.

ziyatkurbanov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-2147-0654>

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarining nazariy masalalari yoritilgan. Xalqaro barqarorlik standartlarini amaliyotga joriy etishning xorij tajribasidan foydalanilgan holda buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, barqarorlik standarti, IFRS S1, IFRS S2.

Abstract: The article examines theoretical issues of financial accounting sustainability standards. Proposals are given for improving accounting using foreign experience in implementing international sustainable development standards.

Key words: accounting, financial reporting, sustainability standard, IFRS S1, IFRS S2.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические вопросы стандартов устойчивости финансового учета. Даны предложения по совершенствованию учета с использованием зарубежного опыта внедрения международных стандартов устойчивого развития.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, финансовая отчетность, стандарт устойчивого развития, IFRS S1, IFRS S2.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun nisbatan yangi tushunchadir. Shu sababli, "muhim ma'lumotlar" nimadan iboratligi va uni qanday qilib to'g'ri tarzda oshkor qilish haqida ba'zi bir dastlabki tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Bu muammolarni bartaraf etish xorijiy sarmoyani jalb qilishni rejalashtirayotgan kompaniyalar uchun eng muhim hisoblanadi. ISSB standartlariga (IFRS S1 va IFRS S2) muvofiq axborotni oshkor qilish xalqaro investorlar o'rtasida ishonchni oshirish uchun zarur qadam bo'lmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoni buxgalteriya hisobining nazariy masalalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu sharoitda buxgalteriya hisobining mavjud modellarini, ob'ektlari va metodlarini iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoniga moslashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobot shakllarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirish zarur.

Jahonda ro'y berayotgan jadal globallashuv jarayoni mamlakatimiz iqtisodiyotini moslashuvini talab qiladi. Global investisiya portfeliga ega xalqaro investorlar kompaniyalar tomonidan iqlim va boshqa ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalari bo'yicha yuqori sifatli, shaffof, ishonchli va qiyoslanuvchan hisobotlarni talab qilmoqdalar. Moliyaviy hisob tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'nalishlaridan biri bo'lib, moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarini (IFRS Sustainability Standards) o'rganib, mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishdir.

Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari Barqarorlik buxgalteriya standartlari kengashi (SASB - Sustainability Accounting Standards Board) tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiya beriladi. Barqarorlik buxgalteriya standartlari kengashi (SASB) mustaqil notijorat tashkilot bo'lib, uning vazifasi davlat korporasiyalariga sarmoyadorlar uchun muhim, qaror qabul qilish uchun foydali ma'lumotlarni oshkor qilishda yordam beradigan barqarorlik hisobi standartlarini ishlab chiqish va tarqatishdan iborat. Ushbu missiya dalillarga asoslangan tadqiqotlar va manfaatdor tomonlarning keng, muvozanatli ishtirokini o'z ichiga olgan jarayon orqali amalga oshiriladi.

SASB barqarorlik uchun real sektorga xos asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqdi, bu esa korporativ hisobotida atrof-muhitga oid ma'lumotlarni taqdim etish tamoyillarini to'ldiradi. Kompaniyalarning barqarorlik, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'sirini aniq va shaffof tarzda hisobot qilish, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun muhim qarorlar qabul qilish, global barqarorlik talablariga moslashish hamda ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali uzoq muddatda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Adabiyotlar sharxi:

Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (International Sustainability Standards Board – ISSB) raisi Emmanuel Faberning (2024) ta'kidlashicha: "Yirik iqtisodiyotlardan tortib, rivojlanayotgan bozorlargacha,



Braziliya, Kosta-Rika, Yaponiya, Nigeriya va Buyuk Britaniya kabi dunyoning yurisdiksiyalari ISSB standartlarini tan oladi. Ularning tartibga solish jarayonlarini yakunlashni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, butun dunyo bo'ylab boshqa yurisdiksiyalar bilan hamkorlik qilish – bizning yaqin kelajakda mutanosib va yuqori sifatli barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy oshkor qilish uchun global asos yaratishda ustuvor vazifamizdir. 20 dan ortiq yurisdiksiya allaqachon ISSB standartlarini o'zlarining huquqiy yoki me'yoriy bazalariga qo'llashga qaror qilgan yoki ularni joriy qilish choralarini ko'rmoqda" [Faber, 1].

E. Nesterenkoning (2025) yozishicha: "2023 yil iyun oyida IFRS Kengashi birinchi marta barqarorlik bilan bog'liq ikkita yangi standartni chiqardi: IFRS S1 "Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar" va IFRS S2 "Iqlim bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib berish". Ular barqarorlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xavf va imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi, ular korxonaning pul oqimiga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta'sir qiladi" [Nesterenko, 2].

E. Zibarevaning (2025) fikricha, "IFRS S1 barqarorlik risklari va imkoniyatlarini va oshkor etilishi kerak bo'lgan tegishli ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun IFRS S1 korxonalardan korxonaga ta'sir qiluvchi barcha muhim barqarorlik risklari va imkoniyatlarini aniqlash va oshkor qilish uchun ikki bosqichli jarayonni bajarishni talab qiladi: birinchi qadam barqarorlik bilan bog'liq risklarni va biznesga qisqa, o'rta va uzoq muddatda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi;

ikkinchi qadam 1-qadamda belgilangan barqarorlik bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar haqida qanday ma'lumotlarni oshkor qilish kerakligini aniqlashga yordam beradi" [Zibareva, 3]. N. G. Sapojnikova va M. V. Tkachevalarning (2024) bayon etishicha: "IFRS S1 korporasiya tomonidan foydalaniladigan resurslar tarkibini belgilaydi: tabiiy, ishlab chiqarish, intellektual, insoniy, ijtimoiy, moliyaviy. Resurslar mazmunini oshkor qilish zarurati qayd etilgan:

ichki – nou-xau, tashkiliy jarayonlar, xodimlarning malakasi;

tashqi – etkazib beruvchilar, distribyutorlar, mijozlar bilan o'zaro aloqalar, sherik kompaniyalarga investisiyalar, qo'shma korxonalar. IFRS S1 ga muvofiq moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlar quyidagilarni ta'minlaydi:

- korporasiyaning rivojlanish istiqbollariga ta'sir etuvchi xavf va imkoniyatlarni aniqlash;
- har bir xavfga nisbatan qiymat zanjiri ko'lamini baholash" [Sapojnikova va boshqalar, 4].

A. A. Nesterova (2023) o'z munosabatini quyidagicha bildirgan: "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlar umumiy maqsadli moliyaviy ma'lumotlarning bir qismi bo'lsa, u holda IFRS S1 u tizimni shakllantiruvchi hujjat va barcha MHXS falsafasi bo'lgan Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asoslarida tasvirlangan sifat xususiyatlariga mos kelishi kerakligi ta'kidlanadi. Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlar umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarning bir qismi sifatida e'lon qilinishi kerak, shunda bunday hisobotlarni taqdim etish orqali kompaniya barqarorlikni oshkor qilish sohasidagi MHXSga to'liq mos kelishini qo'shimcha ravishda ko'rsatadi" [Nesterova, 5].

Darya Gaeva (2025) Qozog'iston kompaniyalarining barqarorlik standartlariga o'tishini quyidagicha izohlaydi: "Joriy (2025) yildan boshlab Moliyaviy bozorni tartibga solish va rivojlantirish agentligining moliyaviy tashkilotlar tomonidan ESG ma'lumotlarini oshkor qilish bo'yicha talablari Qozog'istonda majburiy bo'lib qoldi, shu jumladan IFRS S1 "Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar" va IFRS S2 "Iqlim bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib berish". Yangi standartlar barqaror rivojlanish xavfi va imkoniyatlari, shuningdek, tegishli ko'rsatkichlar va maqsadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqadi" [Gaeva, 6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarining nazariy muammolari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida jahon amaliyoti o'rganilib, nazariy tadqiqot, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tasniflash va empirik darajadagi kuzatish, tavsif va taqqoslash kabi asosiy metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashi (ISSB) 2023 yil 26 iyunda 2024 yil 1 yanvarda yoki undan keyin boshlanadigan davrlar uchun kuchga kiradigan birinchi ikkita Xalqaro Barqarorlik Standartini (IFRS) qabul qildi va amaliyotda qo'llash uchun chiqardi: IFRS S1: "Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar" (IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information).



IFRS S2: “Iqlim bilan bog‘liq ma‘lumotlarni ochib berish” (IFRS S2: Climate-related Disclosures) [7].

Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarini qabul qilish va amaliyotga joriy etish borasida xorijiy davlatlarda qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Braziliya birinchi bo‘lib IFRS S1 ni 2024 yil 1 yanvarga qadar ixtiyoriy, 2026 yil 1 yanvargacha esa majburiy qilib qo‘ydi. Keniya, Nigeriya, Zimbabve va Shri-Lanka to‘liq qabul qilgan.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, Avstraliyada bu borada ma‘lum ishlar amalga oshirilgan. Ushbu mamlakatda moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari AASB tomonidan 2024 yil 20 sentyabrda tasdiqlangan. Avstraliyada faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniyalar uchun AASB S1 “Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha umumiy talablar” standarti ixtiyoriy ravishda, va AASB S2 “Iqlim bilan bog‘liq ma‘lumotlarni oshkora qilish” standartini majburiy qo‘llash e‘lon qilindi [8].

2001 yilda qabul qilingan “Korporasiyalar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ayrim korxonalar 2025 yil 1 yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan yillik davrlar uchun AASB S2 ni qo‘llashlari shart. AASB S1 standartni ixtiyoriy ravishda qo‘llashni tanlagan tashkilot barqarorlik bilan bog‘liq barcha risklar va qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatli istiqbolda korxonaning pul oqimlariga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qiladi. AASB S2 standarti korxonadan qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatda korxonaning pul mablag‘lari oqimiga, moliyadan foydalanish imkoniyatiga yoki kapital qiymatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan iqlim bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda SASB standartlari dunyoning 80 dan ortiq yurisdiksiyalarida 3200 dan ortiq kompaniyalarda, shu jumladan S&P Global 1200 indeksining 75 foizida qo‘llaniladi, chunki sanoatga asoslangan barqarorlik haqidagi ma‘lumotlar kompaniyalar uchun tejankor va to‘g‘ri qaror qabul qilishda investorlar uchun foydalidir. Butun dunyo bo‘ylab korxonalar SASB standartlaridan barqarorlik bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlar to‘g‘risidagi moddiy ma‘lumotlarni yaxshiroq aniqlash, boshqarish va etkazish uchun foydalanadilar [9].

Mamlakatimizda bu borada ma‘lum ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori [10] asosida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar, sug‘urta tashkilotlari 2021 yilgi moliyaviy hisobotlarini MHXS lari asosida taqdim etish, buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash, oliy ta‘lim sohasida o‘quv rejaları va dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifalari belgilab berilgan edi. Hozirgi vaqtda 1630 dan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etgan va moliyaviy hisobot tuzmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-son qarori [10] bilan “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan “AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi, shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda Barqarorlik reytingi platformasida jami 520,2 mingta tadbirkordan 8,8 mingtasi yuqori (AAA – 1 623 ta), 96,7 mingta o‘rta (V), 247 mingta qoniqarli (S), 168 mingta quyi (D) reytingda joylashgan.

Bu esa IFRS S1: “Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar” standartini amaliyotda qo‘llanishidan dalolatdir.

Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma‘lumotlar va asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) daromadning o‘sishi, foyda marjasi, investisiyalar rentabelligi va pul oqimi kabi moliyaviy jihatlariga e‘tibor qaratadi. Ushbu KPI monitoringi tashkilotlarga moliyaviy taraqqiyotni kuzatish, yaxshilash yo‘nalishlarini aniqlash va kerak bo‘lganda tuzatish choralari ko‘rish imkonini beradi. KPilar tashkilotning strategik maqsadlariga mos kelishi va ularning dolzarbligini ta‘minlash uchun muntazam ravishda ko‘rib chiqilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarini mamlakatimizda tan olish va amaliyotga joriy etish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida, ularning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Barqarorlik standartlari — IFRS S1 “Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar” va IFRS S2 “Iqlim bilan bog‘liq ma‘lumotlarni ochib berish”ni o‘zbek tiliga tarjima qilishni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlarini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tegishli me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Эммануэль Фабер. Более половины мировой экономики движется к принятию стандартов устойчивого развития ISSB. <https://esgnews.com/ru.F-ISSB/> 28-май 2024.
2. Нестеренко Е. МСФО (IFRS) 2025: ключевые изменения и нюансы перехода. <https://finacademy.net/materials/article/neobhodimost-perehoda-na-msfo>. 8-апрель 2025.
3. Зибарева Е. Новые стандарты МСФО по устойчивому развитию. <https://training.tedo.ru/blog/esg-reporting/>. 8 апрель 2025.
4. Сапожникова Н. Г., Ткачева М. В. Международные стандарты финансовой отчетности о раскрытии информации об устойчивом развитии корпорации. «Современная экономика: проблемы и решения». Том 8 (2024): Август. <https://doi.org/10.17308/meps/2078-9017/2024/8/137-148>
5. Нестерова А. А. Интеграция целей устойчивого развития в финансовую отчетность согласно проекту МСФО (IFRS) S1 «Раскрытие информации, относящейся к общему устойчивому развитию». Журнал «Управленческий учет». № 4 (2023). С. 237–243.
6. Дарья Гаева. Компании Казахстана переходят на новый стандарт нефинансовой отчетности. <https://kz.kursiv.media/opinions/standart-nefinansovoi-otchetnosti/>. 8 апрель 2025.
7. Exposure Draft and Comment Letters: Proposed Amendments to the IFRS Foundation Due Process Handbook. <https://www.ifrs.org/projects/work-plan/2024-due-process-handbook-review/ed-cl-due-process-handbook-review/>. 7 апрель 2025.
8. Australian Sustainability Reporting Standards AASB S1 and AASB S2 are now available on the AASB Digital Standards Portal. Australian Accounting Standards Board. <https://aasb.gov.au/news/australian-sustainability-reporting-standards-aasb-s1-and-aasb-s2-are-now-available-on-the-aasb-digital-standards-portal/>. 7 апрель 2025.
9. How the SASB Standards Support ISSB Disclosure. <https://help.sasb.org/hc/en-us>. 7 апрель 2025.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4611-сон қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 январдаги “Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 55-сон қарори.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
